

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**



**“Tasdiqlayman”**

**institut rektori, qabul  
komissiyasi raisi**

**M.E.Po‘latov**

**2024 y.**



**MEHMONXONA XO‘JALIGINI TASHKIL ETISH VA  
BOSHQARISH O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL  
TA’LIM MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA  
BITIRUVCHILAR UCHUN SUHBAT SAVOLLARI**

Tuzuvchilar: dots. S.A.Abduxamidov,  
dots. A.P.Maxmudova

Suhbat savollari “Turizm” kafedrasining 2024-yil  
28-iyundagi 11-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va  
tasdiqlangan.

**Kafedra mudiri**  **S.A.Abduxamidov**

**Turizm o'rta maxsus professional ta'lim mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilar uchun suhbat savollari:**

**Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.**

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonidagi iqtisodiy sohaga doir vazifalar mazmuni va mohiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 19-iyuldagi "Ko'rfaz arab davlatlari – Markaziy Osiyo" oliy darajadagi birinchi sammitidagi nutqida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 17-maydagi Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi yig'ilishidagi nutqida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-iyul kuni poytaxtimizdagi Shanxay hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi yig'ilishi rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuv mohiyati va mazmuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.
6. 2022 yil 21-iyul kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvidagi ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi PQ-232 sonli "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori mohiyati.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyuldagi PQ-338 sonli "Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori mohiyati.
9. 2019 yil 18 iyulda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi yangi qonundagi asosiy o'zgarishlar.
10. Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
11. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
12. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
13. Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
14. Turizm va madaniy meros ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
15. Turistik zonalar va dam olish maskanlari, joylashtirish vositalarini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
16. Turizm va mehmondo'stlik industriyasida transport xizmatlari bozori hamda infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

17. Dam olish maskanlari, ko'ngil ochar tadbirlarni tashkil etish, ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

18. Mamlakatda turizm xizmatlari hajmini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

19. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarda turizmning o'rnini.

20. 2022 yil 21 iyunda bo'lib o'tgan O'zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari muzokaralarida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

21. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish Bu borada belgilangan amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

22. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish belgilangan amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 yanvardagi PF-52 sonli "Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohaslarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida" gi Farmoni mohiyati.

24. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari yuzasidan videosektor yig'ilishidagi asosiy vazifalar.

25. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish yo'nalishlarini sanab bering.

26. Turistlarni avtotransport yordamida tashishni tashkil qilishning Xalqaro munosabatlari qaysi bitim asosida tartibga solinadi?

27. Turizm mamlakatlarida tashkil qilingan Turizm politsiyasi zimmasidagi vazifasiga nimalar kiradi?

28. Turizm sohasining mamlakat ijtimoiy hayotidagi o'rnini qanday izohlaysiz?

29. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qanday me'yoriy-huquqiy asoslar bilan tanishsiz?

30. Mamlakatimizda zamonaviy turizmni rivojlantirish siyosatining mohiyati.

31. Mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar mohiyati.

32. Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar mohiyati.

33. O'zbekistonning turizm sohasidagi asosiy hamkor mamlakatlari va ular bilan hamkorlik yo'nalishlari haqida qanday ma'lumotga egasiz?

34. Turizm sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi.

35. Turizm sohasida investitsiyaviy jozibadorlikning hozirgi holati haqida qanday fikrdasiz?

36. Turizmning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rnini va ahamiyati.

37. Turistlarni avtotransport yordamida tashishni tashkil qilishning Xalqaro munosabatlar bitimi mohiyati.

38. Mamlakatimizda ekologik turizmini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar mohiyati.

39. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda Xalqaro tashkilotlarning o'rnini va roli.

40. Turizmning iqtisodiyot tarmog'i sifatidagi evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari.

**Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)**

1. Turizm sohasi kasbini tanlashingizdan asosiy maqsad nima?
2. Ushbu kasbni tanlashda Siz uchun qaysi biri muhim: daromad topish manbai, jamiyatda o'z o'rnini topish, vatanga xizmat qilish, umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat yoki boshqalar.
3. Aynan Sizni ushbu yo'nalish bo'yicha o'qishga va keyinchalik ishga qabul qilish uchun asos bo'lgan ustuvorliklaringizni keltiring
4. Turizm sohasi kasbi boshqa kasblardan nimasi bilan ajralib turadi?
5. Turizm sohasi kasb egasi qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
6. Turizm sohasi xodimlarining kasbiy etikasi nimalardan iborat?
7. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishda turizm sohasining o'рни va ahamiyati nimadan iborat.
8. Siz tanlagan kasbning boshqa kasblardan farqli ravishda salbiy jihatlarini sanab bering.
9. Turizm sohasi kasbi egalarining korxonalardagi asosiy funksiyasi nimadan iborat.
10. Turizm sohasi bo'yicha mutaxassisning asosiy majburiyatlari nimalardan iborat.
11. Turizm sohasiga bo'lgan qiziqishlaringizni beshta asosiy dalillar bilan izohlab bering.
12. Bugungi kunda Siz tanlagan kasbda mehnat faoliyatini olib borayotgan mutaxassislarda havas qiladigan qanday jihatlarni ko'rayapsiz.
13. Siz tanlagan kasbda mehnat faoliyatini olib borayotgan jahon miqyosida taniqli va mashhur qanday kishilarni bilasiz.
14. Sizni turizm sohasi bo'yicha kasbni tanlashga undagan asosiy sabablar nimadan iborat.
15. Siz nima uchun aynan turizm sohasini tanladingiz? Javobingizni aniq dalillar asosida bayon qiling.
16. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida turizm sohasiga kasbga qiziqish ortmoqdam yoki qiziqish yo'qmi?
17. Siz tanlagan kasbda qaysi biri muhim: soha bo'yicha nazariy bilimlar, soha bo'yicha amaliy bilimlar, axborot texnologiyalar bo'yicha bilimlar, chet tillari, shaxsiy fazilatlar yoki boshqalar.
18. Turizm sohasida yetuk mutaxassis bo'lish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?
19. Turizm sohasida muvoffaqiyatli faoliyat yuritish uchun qanday bilim va fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
20. Mamlakatimizda turizm sohasi rivojlanib bormoqda deb hisoblaysizmi? Javobingizni aniq dalillar asosida bayon qiling.
21. Turizm sohasiga bo'lgan qiziqishlaringizning asosiy sabablarini aytib bering.
23. O'zingizda turizm sohasiga moyillik va qiziqish yuqori ekanligini nima bilan asoslab berasiz?
24. Mamlakatimizda turizm sohasining istiqbolini qanday tasavvur qilasiz?
25. Turizm sohasini tanlash qaroriga kelishingizga nima sabab bo'ldi?

26. Turizm sohasini tanlash qarorini mustaqil o'zingiz qabul qilindingizmi yoki boshqa kishilar tavsiyasi asosida tanladingizmi?
27. Turizm sohasi haqida asosiy ma'lumotlarni qayerdan oldingiz?
28. Turizm sohasini tanlashdagi asosiy istaklaringiz va maqsadlaringiz nimadan iborat?
29. Turizm sohasi sizning imkoniyatlaringiz, qiziqishlaringiz va qobiliyatlaringizga mos keladimi?
30. Kasb tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak deb o'ylaysiz?
31. Turizm sohasini tanlashdagi asosiy motivlaringiz nimalardan iborat?
32. Turizm sohasini tanlashdagi moddiy va ma'naviy motivlaringiz nimalardan iborat?
33. Qaysi motivlar asosida siz turizm sohasini tanladingiz?
34. Kelajakda turizm sohasida qanday muvaffaqiyatlarga erishishni rejalashtirmoqdasiz?
35. Turizm sohasining rivojlanishiga to'siq bo'luvchi omillarni tushuntirib bering.
36. Turizm sohasining asosiy ob'ektlarini tushuntirib bering.
37. Turizm sohasiga bo'lgan qiziqishingizning ustun jihatlarini tushuntirib bering.
38. Turizm sohasi bilan bog'liq ma'naviy qadriyat tizimini tushuntirib bering.
39. Turizm sohasi xodimlariga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.
40. Turizm sohasi mutaxassisining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.

**Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)**

1. Turizm kasb egasi uchun xushmuomalalik va e'tiborli bo'lish qanchalik muhim, fikringizni izohlab bering?
2. Turizm kasb egasi uchun tashabbuskorlik qanchalik muhim, fikringizni izohlab bering?
3. Turizm sohasida faoliyat yuritish uchun kasb egasining shaxsiy yutuqlarga erishganligi qanchalik muhim deb hisoblaysiz?
4. Turizm kasb egalari uchun qanday kasbiy fazilatlar bo'lishi kerak?
5. Turizm kasb egalari uchun qanday shaxsiy fazilatlar bo'lishi kerak?
6. Turizm kasb egasiga shaxsiy va kasbiy fazilatlar maqsadga erishish uchun qanchalik yordam bera oladi deb o'ylaysiz?
7. Sizda shaxsiy fazilatlar ko'proqmi yoki kasbiy fazilatlar ko'proqmi, nima uchun?
8. Sizning qiziqishlaringiz egallamoqchi bo'lgan kasbingizga qanchalik yaqin?
9. Bu kasbni nima uchun tanlagansiz?
10. Xobbingiz nima, bo'sh vaqtingizda nimalar bilan mashg'ul bo'lasiz?
11. Sizning qobiliyatlaringiz va kasbiy fazilatlarining turizm korxonalari kelajagiga qanday ijobiy ta'siri bor?
12. Doimiy mijozlar sonini oshirib borish uchun turizm korxonalari nimaga ko'proq e'tibor qaratishi lozim?
13. Turizm sohasi mutaxassisi sifatida turizm korxonasining turizm bozorida yaxshiroq mavqega erishish uchun qanday takliflar bera olasiz?

14. Turizm sohasida hamkasblarga bo'lgan munosabatda teng mavqeni ushlab turish uchun qanday yo'l tutasiz?
15. Rahbaringizga bo'lgan munosabatingiz doimo do'stlik va samimiylikka asoslangan bo'lishi uchun qanday usullardan foydalanasiz?
16. Siz uchun qaysi boshqaruv usuli yaxshi deb hisoblaysiz va nima uchun?
17. Turizm korxonasi uchun qanday omillar ichki tartib - intizomga rahna solishi mumkin?
18. Nima uchun turizm sohasi xodimlariga kasbiy va professional talab qo'yilishi kerak deb hisoblaysiz?
19. Turizm sohasida qachon xodimlar qo'nimsizligi yuzaga keladi, uning olidini olish uchun qanday taklif va tavsiyalarigiz bor?
20. Turizm sohasida rahbar va xodimlar to'g'ri mehnat jamoasini tashkil qilishlari uchun ma'naviy barkamollik qanchalik rol o'ynaydi va nima uchun?
21. Turizm sohasida rahbar va xodimlarga qanday talablar qo'yilsa yaxshi bo'ladi deb hisoblaysiz, fikringizni izohlang
22. Turizm sohasi uchun rahbar va xodimlarning jismoniy imkoniyati va sog'lig'i qanchalik muhim?
23. Mehmonxonalarda va yangi turdagi xizmatlarni turistlarga realizatsiya qilish uchun qanday islohotlar kerak?
24. Mehmonxonalarda yangi turdagi xizmatlarni realizatsiya qilish uchun siz turistlarga qanday kafolatlarni taqdim qila olasiz?
25. Mehmonxonalarda nizo mavjudmi va u qanday nizolar bo'lishi mumkin?
26. Siz rahbar yoki xizmat ko'rsatuvchi xodim sifatida nizoni qanday usullar asosida bartaraf eta olasiz?
27. Turizm sohasida raqobat va nizo qanchalik bir - biriga yaqin?
28. O'z kasbining mohir ustasiga yana qanday talablar qo'ysa bo'ladi?
29. Ishga bo'lgan layoqat nima, siz xodimning layoqatli yoki layoqatsiz ekanligini qanday ajrata olasiz?
30. Turizm sohasi mutaxassisiga intellekt (aql - zakovat) kuchli bo'lishi kerakmi yoki IQ (fahm - farosatmi) darajasimi?
31. Turizm kasbi egasi uchun intellekt qanday o'ringa ega?
32. Turizm kasb egasi uchun kreativlik kerakmi, nima deb o'ylaysiz?
33. Turizm sohasida mavsumiylik bo'lmagan paytlarda turizm kasb egalari qanday strategiyani qo'llashi mumkin deb o'ylaysiz?
34. Turizm sohasi mutaxassislari qanday holatlarda xizmatlar narxlarini tushirishi yoki ko'tarishi mumkin?
35. Ichki turistlarni nomavsum paytda sayohatga jalb qilish uchun soha mutaxassislari qanday islohotlarni amalga oshirishi kerak deb hisoblaysiz?
36. Xorijiy turistlarni turistik hududlarga jalb qilish uchun soha mutaxassislari qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak deb hisoblaysiz?
37. "Vatanparvarlik - mahorat - innovatsiya" tizimini qanday tushunasiz va uning turizmga qanday aloqasi bo'lishi mumkin?
38. Sizning kasbingizga madaniyat, etika va estetika qanchalik kerak?
39. Siz qanchalik sabrlisiz, sizga nisbatan nohaqlik bo'lsa buni qanday qabul qila olasiz?
40. Siz qanchalik sodiqsiz va bu sodiqlikning mukofoti nima bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?
41. Siz Vatanparvarsiz, oila, jamiyat va Vatan oldidagi muqaddas burchingiz nima?

42. Muhim qarorlarni qabul qilish uchun kimdandir maslahat olasizmi va nima uchun?
43. O'z raqobatchingizga bo'lgan hurmat va ehtiromni qanday ko'rsata olasiz?
44. Sizning hozirgi innovatsiya va axborotlashtirishga bo'lgan ehtiyojingizni qanday izohlab berasiz?
45. Siz mehmondo'stmisiz, korxonangizga kelgan mehmonlarga qanday hurmat va iltifot ko'rsatgansiz?
46. Siz yangi joyga qay darajada tez yoki sekin moslasha olasiz? Buning sababi nima deb o'ylasiz?
47. Qiyin ziddiyatli vaziyatlarda o'zingizni qay darajada boshqara olasiz?
48. Tashqi ko'rinish va did qay darajada turizm sohasi uchun muhim?
49. Sizning kasbingiz uchun eng muhim bo'lgan 5 ta shart nimalar deb o'ylaysiz?
50. Turizm sohasi uchun kasbiy bilim muhimmi yoki shaxsiy tajriba muhimmi?
51. Turizm sohasi uchun psixologik bilim qay darajada kerak?

### **Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.**

1. Turizm subyekti va obykti deganda nimani tushunasiz? *(tayanch iboralar: turopoperator, turagent, turistik korxonalar, turistik infratuzilma).*
2. Mehmondo'stlik industriyasida joylashtirish vositalari vositalarining bo'limlarini tavsiflab, tushuntirib bering *(tayanch iboralar: front - ofis, marketing bo'limi, ovqatlantirish bo'limi).*
3. Buxoro viloyatining turizm imkoniyatlarini tushuntirib bering *(tayanch iboralar: tarixiy-madaniy obyektlar, ekoturizm, ziyorat turizmi).*
4. Mehmondo'stlik industriyasida ovqatlanish korxonalarini aytib bering *(tayanch iboralar: Mehmonxona, restoran, kafe, barlar).*
5. Ovqatlantirish korxonalarida tortiq qilinadigan menyu turlarini sanab bering *(tayanch iboralar: A La Carte menyusi, Table D'Hôte menyusi, Prix Fixe menyusi).*
6. Turizmning turlariga tavsif bering *(tayanch iboralar: ekologik turizm, ziyorat turizmi, ekstremal turizm, qishloq turizmi).*
7. Turizmning shakllarini tavsiflab bering *(tayanch iboralar: kirish turizmi, chiqish turizmi, xalqaro turizm).*
8. Mehmonxonaning asosiy xizmatlariga ta'rif va tavsif keltiring *(tayanch iboralar: restoran xizmati, mehmonxona, transport xizmati).*
9. Mehmondo'stlik industriyasida sayr-tomoshalar va ko'ngil yozish infratuzilmasi *(tayanch iboralar: mehmonxona, animasiyon dasturlar, ob'ektlar, animasiya).*
10. Mehmondo'stlik industriyasida ekskursiya xizmatlariga ta'rif bering va misollar keltiring *(tayanch iboralar: ekskursiya xizmatlari, ziyorat obyektlari, tarixiy monumentlar).*
11. Mehmonxona biznesida mavsumiylik nima *(tayanch iboralar: mehmonxona, talab, biznes, mavsumiylik, taklif).*
12. Mehmonxona biznesida mijozlar segmenti kimlardan iborat *(tayanch iboralar: mehmonxona, daromad, ishbilarmonlik, mehmonlar).*
13. Mehmonxonalarning hayotiy sikli? Javobingizni misollar bilan asoslang *(tayanch iboralar: mehmonxona, bozor, talab, raqobat).*
14. Mehmonxona biznesida kadrlarni tanlash texnologiyasining o'rni nimalardan iborat *(tayanch iboralar: kadrlar qo'nimsizligi, texnologiya, suhbat).*

15. Mehmonxonalarda korporativ mijozlarga qanday xizmatlar amalga oshiriladi (*tayanch iboralar: bonuslar, chegirmalar, shartnoma, mehmonxona xizmatlari*).

16. Turizm sohasi qanday belgilar bo'yisha tavsiflanadi? (*tayanch iboralar: maqsadlar bo'yicha, ishtrok etuvchilar soni bo'yicha, tashkiliy shakllari bo'yicha, moliyalashtirish manbai bo'yicha*).

17. Mehmonxonalarda bronlashtirishni tashkil etish qanday amalga oshiriladi tushuntirib bering (*tayanch iboralar: bronlashtirish, booking.com, mehmonxona*).

18. Turizmning maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: dam olishga bo'lgan ehtiyojni maksimal qondirish, keng tanlash imkoniyatini yaratish, talab va taklifni o'rganish*).

19. Turistik tovar va xizmatlarning hayotiy davri va ularning bosqichlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: bozorga kirish, o'sish, yetuklik, bozordan chiqish*).

20. Turizm turlarining o'ziga xos jihatlari tushuntirib bering (*tayanch iboralar: harakatlanish usuli bo'yicha, joylashtirish vositalari bo'yicha, ovqatlantirish vositalari bo'yicha*).

21. Turizm faoliyatini axborot bilan ta'minlash, axborot turlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: marketing axboroti, birlamchi va ikkilamchi axborotlar, marketing axborot tizimi, axborot yig'ish usullari*).

22. Faol harakatlanuvchi turizm turlarini keltiring va mohiyatini tushuntiring (*tayanch iboralar: tog' turizmi, jismoniy harakat, ekstremal dam olish*).

23. Turizmning passiv turlariga misollar keltiring (*tayanch iboralar: tanishish turizmi, sog'lomlashtiruvchi turizm*).

24. Ekologik turizmga qo'yilgan talablar (*tayanch iboralar: xavfsizlik, tozalik, tabiat bilan uyg'unlik, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik*).

25. Turistik mahsulotlarni sotish kanallari va ularning turlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: bir pog'onali kanal, ko'p pog'onali kanal, to'g'ridan-to'g'ri sotuv*).

26. Turistik-rekreatsioon faoliyat klasteri qanday muhim vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega? (*tayanch iboralar: turistik resurslarni ro'yxatga olish, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash*).

27. Sotsial turizm deganda nimani tushunasiz (*tayanch iboralar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy ehtiyoj, moliyaviy manbalar*).

28. Turizm PR, sotishni rag'batlantirish va shaxsiy sotuvni tushuntirib bering (*tayanch iboralar: jamoatchilik, xodimlarni rag'batlantirish, turistlarni rag'batlantirish, turistik agentliklar*).

29. Turizm tushunchasi va turizmning ta'riflarini sharhlab bering (*tayanch iboralar: BTT ta'rifi, turistik bozor, ehtiyoj, talab, dam olish, moliyalashtirish*).

30. Turistik korxonalarining ichki va tashqi muhiti, unga ta'sir qiluvchi omillarni tushuntirib bering (*tayanch iboralar: turistlar, turoperatorlar, raqobatchilar, siyosiy, iqtisodiy omillar*).

31. Turistik resurslar mohiyatini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: tabiiy, infratuzilmali, axborot beruvchi*).

32. Turizm turistik mahsulotlarni sotishni rag'batlantirish va unga bo'lgan talabni shakllantirish tadbirlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: turagentlar, turoperatorlar va iste'molchilarni rag'batlantirish, ko'rgazma va yarmarkalar*).

33. Turizm resurslarini guruhlariga ajratib tushuntirib bering (*tayanch iboralar: tabiiy turistik resurslar, mineral suvlar, tugamaydigan tabiiy resurslar*).

34. Turizm faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilishni tushuntirib bering (*tayanch iboralar: strategik va taktik rejalashtirish, strategik nazorat turlari*).

35. Ijtimoiy-iqtisodiy resurslar deganda nimalarni tushunasiz? (*tayanch iboralar: transport vositalari, iste'mol tovarlari, korxonalar*).
36. Toshkent viloyatining turistik imkoniyatlarini tushuntiring (*tayanch iboralar: ekoturizm, tarixiy va ziyorat yodgorliklari, sog'lomlashtirish oromgohlari*).
37. Samarqand viloyatining turistik imkoniyatlarini tushuntiring (*tayanch iboralar: ziyorat turizmi, tarixiy obidalar, YUNESKO, "Samarkand city", ekoturizm*).
38. Buxoro viloyatining turistik imkoniyatlarini tushuntiring (*tayanch iboralar: ekoturizm, tarixiy va ziyorat yodgorliklari, hunarmandchilik*).
39. Xorazm viloyatining turistik imkoniyatlarini tushuntiring (*tayanch iboralar: gastronomik turizm, arxitektura yodgorliklari, Ichan Qal'a, Ko'hna ark yodgorliklari*).
40. Farg'ona viloyatining turistik imkoniyatlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: ekoturizm, hunarmandchilik, qishloq turizmi*).
41. Turistik xizmatlar deganda nimani tushunasiz (*tayanch iboralar: turistik ehtiyoj, turistik tashkilotlar, iste'mol tovarlari*).
42. Turizmda asosiy xizmatlar mohiyatini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: turpaket, tashish, ovqatlantirish, joylashtirish*).
43. Turizmda qo'shimcha xizmatlar mohiyatini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: turpaket, ehtiyoj qo'shimcha to'lov*).
44. Turistlarga qo'shimcha xizmat ko'rsatishda nimalarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaysiz (*tayanch iboralar: turistlar xohishi, milliy urf-odatlar, kreativ turistik xizmatlar*).
45. Turistik mahsulotlar deganda nimani tushunasiz (*tayanch iboralar: transfer, foto xizmati, bronlashtirish, ovqatlantirish*).
46. Turmahsulotlar tarkibini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: asosiy va qo'shimcha xizmatlar, turistik tovarlar assortimenti*).
47. Turistik mahsulotlarni sotish kanallarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: sotuv kanallari, ulgurji va chakana savdo, turoperator, turagent*).
48. Turistik xizmatlar xususiyatlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: sezilmaslik, saqlanmaslik, sifatning doimiy emasligi, servis va iste'molchining o'zaro bog'liqligi*).
49. Xizmat ko'rsatish klasslari va xizmatlar paketini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: lyuks klass, birinchi klass, buyurtmali tur, inklyuziv tur*).
50. Jozibador turistik mahsulot qanday yaratiladi (*tayanch iboralar: buyurtmali tur, inklyuziv tur, xizmat ko'rsatish paketi*).
51. Mehmondo'stlik industriyasi deganda nimani tushunasiz (*tayanch iboralar: mehmon qabul qilish, apartamentlar, motellar, otellar*).
52. Turizmda joylashtirish xizmati asosan qanday ishlar va vazifalarni o'z ichiga oladi (*tayanch iboralar: reklama, PR, bronlashtirish, joylashtirish*).
53. Turizmda axborot hisoblash tizimini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: ro'yxatga olish, buyurtma qilish, bronlashtirish, hisob-varaqlar*).
54. Turistlar va mehmonlarni joylashtirish vositalarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: maxsuslashtirilgan, maxsuslashtirilmagan, tijorat mehmonxonalari, mehmonxonalar va shunga o'xshash muassasalar*).
55. Mehmonxona nomeri deganda nimani tushunasiz (*tayanch iboralar: dam olish, asosiy element, ko'p funksiyalilik*).
56. Nomerlar turlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: twin room, single room, family room, double room*).
57. Funktsional vazifasiga ko'ra mehmonxonalar qanday turlarga bo'linadi (*dam olish uchun, ishbilarmonlar uchun mehmonxonalar, mehmonxonalarning maxsus turlari*).

58. Mehmonxona turlari (*tayanch iboralar: otel-lyuks, otel-kurort, motel, pansion, rotel*).
59. Mehmonxonalarni tasniflash tizimlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: Yevropa tasniflash tizimi, harflar tizimi, tojlar tizimi*).
60. Mehmonxona mijozlarining xulk-atvoriga ta'sir etuvchi omillar tavsifi (*tayanch iboralar: madaniy omillar, ijtimoiy omillar, shaxsiy omillar, psixologik omillar*).
61. Turizmda ovqatlantirish xizmatlari deganda nimani tushunasiz (*tayanch iboralar: restoran, kafe, bar xizmatlari, sertifikatziya va standartizatsiya*).
62. Turizm sohasida umumiy ovqatlanish sohasi tasniflanishini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: maqomga ko'ra, mulk shakliga ko'ra, joylashuviga ko'ra, xizmat darajasi va shakliga ko'ra*).
63. Umumiy ovqatlanish korxonasi deganda nimani tushunasiz (*tayanch iboralar: xizmat sifati, mijoz mamnunligi, tamaddixona, oshxona*).
64. Turizmda ovqatlantirish korxonalari toifasini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: lyuks toifa, oliy va birinchi toifa*).
65. Barlar va ularning turlari (*tayanch iboralar: vino barlar, sushi barlar, pivo barlar, ekspress-barlar*).
66. Ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish turlari va menyular (*tayanch iboralar: shved stoli, family service, plate service, silver service*).
67. Turizm sohasida transport xizmatlari deganda nimani tushunasiz (*tayanch iboralar: tashish, transit, yetkazish*).
68. Turizmda transport vositalarining turlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: quruqlikda, havoda, suvda*).
69. Gid-ekskursiya xizmatlarining mohiyatini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: ekskursiya, ekskursant, ekskursiya xizmati, gid*).
70. Ekskursiya xizmatining maqsadi, vazifasi va o'tkazish shakllari (*tayanch iboralar: dam olish, ilmiy, o'quv, ekspeditsiya, madaniy-ta'limiy*).
71. Ekskursiya xizmatining umumiy xususiyatlariga nimalarni kiritish mumkin? (*tayanch iboralar: davomiylik, ekskursiya obyektlarining va gidning mavjudligi*).
72. Gid-ekskursiya xizmati va uning vazifalarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: gid kasbining shakllanish bosqichlari, kasbiy talablar, shaxsiy fazilatlar*).
73. Gidga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering (*tayanch iboralar: tashqi ko'rinish, professional talablar, shaxsiy fazilat, turfirma talablari*).
74. Turistik xizmatlarni loyihalashtirish taribini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: texnologik xujjatlar, loyiha tahlili, sifat nazorati, xizmat ko'rsatish dasturi*).
75. Turistik mahsulotni hisoblash jarayonini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: transport xizmatlari, transfer xizmatlari, mehmonxona xizmatlari, turagent komissiyasi*).
76. Turistik mahsulot ishlab chiqarish bosqichlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: turistik xizmatlar bozori, marshrui yo'lini tuzish, texnologik xujjatlarni tasdiqlash*).
77. Gid kasbining shakllanish bosqichlari (*tayanch iboralar: bilimga ega bo'lish, kasbiy mahorat, malaka, bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish*).
78. Turizm industriyasi va turizm infratuzilmasining mohiyati va tarkibiy qismi (*tayanch iboralar: mehmonxonalar, transport korxonalari, madaniyat, sport muassasalari*).
79. Mehmonxona xo'jaligida turoperator va turagentlar faoliyati (*tayanch iboralar: turpaket, sotish, reklama faoliyati, ulgurji va chakana sotish*).

80. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar haqida gapiring (*tayanch iboralar: davlat qo'riqxonalari, milli bog'lar, tabiat yodgorliklari, buyurtmaxonalar*).
81. Mamlakatimiz ekoturistik salohiyati haqida gapiring (*tayanch iboralar: davlat qo'riqxonalari, milli bog'lar, tabiat yodgorliklari, buyurtmaxonalar*).
82. Gastronomiya turizmi turlari, rivojlantirishning maqsadi va vazifalari (*tayanch iboralar: gastronomik turizm, gastroturistlar, kulinarlar*).
83. Mamlakatimizda qishloq turizmini shakllanish jarayonida mehmonxonalarning o'rnini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: yomshoq turizm, tog' turizmi, tabiat turizmi, yashil turizm*).
84. Mehmonxona xo'jaligida marketing va marketing tadqiqotlari (*tayanch iboralar: marketing, marketing tadqiqotlari, turistik bozorni o'rganish, bozor tahlili, bozor vaziyati*).
85. Mehmonxona xo'jaligida marketing tadqiqotlari o'tkazishning maqsadi va yo'nalishlari (*tayanch iboralar: tadqiqot yo'nalishi, tadqiqot yo'nalishini aniqlash, tadqiqot maqsadi, maqsad va vazifalarni aniqlash*).
86. Mehmonxona xo'jaligida marketing tadqiqotlari o'tkazish usullari (*tayanch iboralar: so'rov usuli, kuzatish usuli, ekspertlar usuli, ekspertimental usul, fokus-guruh usuli*).
87. Mehmonxona xo'jaligida marketing tadqiqotlarining maqsad va vazifalari (*tayanch iboralar: turistik korxonalarda marketing tadqiqotlarini o'tkazish jarayoni, muammoni aniqlash, tadqiqot maqsadini belgilash, vazifalarni aniqlash*).
88. Turizm sohasining xalqaro tashkilotlari (*tayanch iboralar: BTT, AIT, UFTAA, ICCA, IATA*).
89. Jahonda turizmni rivojlantirish bo'yicha eng nufuzli BMT ning Butunjahon turizm tashkiloti (*tayanch iboralar: BTT ning asosiy maqsadi, faoliyat yo'nalishlari, tashkiliy tuzilmasi, qo'mitalari*).
90. Turizm sohasini davlat tomonidan boshqarishning yo'nalish va mexanizmlarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: davlatning turizm sohasidagi siyosati, mexanizmlari, turizm strategiyasi va taktikasi*).
91. Turizm sohasini davlat tomonidan boshqarishning funktsiya va usullari (*tayanch iboralar: turizm rivojini rejalashtirish, alohida faoliyat turlarini boshqarish, turizm xavfsizlikni ta'minlash, malakali kadrlar*).
92. O'zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanish holati haqida gapiring (*tayanch iboralar: xalqaro turizm, kiruvchi turizm, viza, soliq imtiyozlari*).
93. Mehmonxona xo'jaligi korxonalarida litsenziya olish uchun davlat tomonidan qo'yilgan talablar (*tayanch iboralar: ichki turizm, kirish turizmi, chiqish turizmi, davlat boji*).
94. Turizm sertifikatlash deganda nimani tushunasiz (*tayanch iboralar: aholi salomatligini ta'minlash, ekspert ma'lumotlari, sifatli xizmat*).
95. Turizm sertifikatlash turlari haqida gapiring (*tayanch iboralar: ixtitoy sertifikatlash, majburiy sertifikatlash*).
96. Turizm standartlashtirish jarayonining mohiyati (*tayanch iboralar: sifat nazorati, loyiha tahlili, texnologik mahsulotni ishlab chiqish*).
97. Turistik-ekskursion xizmat ko'rsatish sohasida xizmatlar turi va standartlari (*tayanch iboralar: bir turdagi xizmatlar, umumiy talablarga doir xizmatlar*).
98. Mehmonxona xo'jaligida xavfsizlikni ta'minlash tamoyillarini tushuntirib bering (*tayanch iboralar: turizm xavfsizlik, milliy qonunlar, xalqaro huquqlar, mexanizmlar*).

99. Mehmonxona xo'jaligiga oid rasmiyatchliklar haqida gapiring (*tayanch iboralar: qoidalar, shartlar, Manila deklaratsiyasi, Gaaga deklaratsiyasi, passport, bojxona va viza rejimi*).

100. Mehmonxona xo'jaligida marketing tadqiqotlari uchun axborotlarni to'plash, tahlil qilish va tayyorlash (*tayanch iboralar: turistik axborot, axborot yig'ish usullari, axborotni qayta ishlash*).

Mazkur suhbat savollari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 17-son qaroriga asosan tayyorlandi.

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga

1) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish).

3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari).

4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha jami to'rtta savol beriladi.

Har bir variantda 4 tadan savollar mavjud bo'lib, ularning natijalari:

- birinchi savol uchun – 20 ball;
- ikkinchi savol uchun – 15 ball;
- uchinchi savol uchun – 15 ball;
- to'rtinchi savol uchun – 50 ballik tizim bo'yicha baholanadi.

Savollar uchun eng yuqori ball – 100 ballni tashkil etadi. Suhbat natijalari quyidagi mezonlar bo'yicha to'plagan umumiy bali quyidagicha baholanadi.

| T/r. | Baho       | Xususiy ball |
|------|------------|--------------|
| 1    | A'lo       | 90,0-100     |
| 2    | Yaxshi     | 78,1-89,9    |
| 3    | Qoniqarli  | 67,0-78,0    |
| 4    | Qoniqarsiz | 0-66,9       |